



Vitagen ta'lim texnologiyasi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining perseptiv qobiliyatlarini rivojlantirish

Tursunboyeva Kamola Ilxomjon qizi –

Andijon davlat pedagogika instituti

3-bosqich tayanch doktoranti

E-mail: kamola.tursunboyeva@mail.ru

Tel: +998 91 671-71-24

Annotatsiya. Mazkur maqolada vitagen ta'lim texnologiyasi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining perseptiv qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsining kasbiy kompetentligini shakllantirish, xususan, o'quvchini idrok etish, anglash, tushunish va baholash bilan bog'liq bo'lgan perseptiv qobiliyatlarni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Vitagen ta'lim texnologiyasi shaxsning hayotiy tajribasi, subyektiv bilimi va individual idrok xususiyatlarini o'quv jarayoniga integratsiyalash orqali o'rganishni faollashtiruvchi samarali vosita sifatida tahlil qilingan. Maqolada nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv, suhbat, diagnostik metodlar va tajriba-sinov ishlari asosida olingan natijalar bayon etilgan. Tadqiqot natijalari vitagen ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida perseptiv sezgirlik, pedagogik kuzatuvchanlik va refleksiv tafakkurni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: vitagen ta'lim texnologiyasi, perseptiv qobiliyat, bo'lajak o'qituvchi, boshlang'ich ta'lim, pedagogik idrok, kasbiy kompetensiya, refleksiya.

Развитие перцептивных способностей будущих учителей начальных классов на основе витагенной образовательной технологии

Аннотация. В данной статье теоретически и практически исследуется проблема развития перцептивных способностей будущих учителей начальных классов на основе витагенной образовательной технологии. В современной системе образования формирование профессиональной компетентности личности учителя, в частности развитие перцептивных способностей, связанных с восприятием, осмыслением, пониманием и оценкой ученика, является одной из актуальных задач. Витагенная образовательная технология рассматривается как эффективное средство активизации обучения посредством интеграции жизненного опыта личности, субъективных знаний и индивидуальных особенностей восприятия в образовательный процесс. В статье представлены результаты, полученные на основе теоретического анализа, педагогического наблюдения, беседы, диагностических методов и опытно-экспериментальной работы. Результаты исследования подтверждают, что занятия, организованные на основе витагенной образовательной технологии, оказывают положительное влияние на развитие перцептивной чувствительности, педагогической наблюдательности и рефлексивного мышления у будущих учителей начальных классов. Научные выводы и практические рекомендации направлены на совершенствование системы подготовки педагогических кадров.

Ключевые слова: витагенная образовательная технология, перцептивная способность, будущий учитель, начальное образование, педагогическое восприятие, профессиональная компетентность, рефлексия.

Development of perceptual abilities of future primary school teachers based on vitagen educational technology

Annotation. This article theoretically and practically examines the development of perceptual abilities of future primary school teachers based on vitagenic educational technology. In the modern education system, the formation of teachers' professional competence particularly the development of perceptual abilities related to perceiving, understanding, interpreting, and evaluating students is considered one of the pressing tasks. Vitagenic educational technology is analyzed as an effective tool for enhancing learning through the integration of an individual's life experience, subjective knowledge, and personal perceptual characteristics into the educational process.

The article presents results obtained through theoretical analysis, pedagogical observation, interviews, diagnostic methods, and experimental research. The findings confirm that classes organized on the basis of vitagenic educational technology have a positive impact on the development of perceptual sensitivity, pedagogical observation skills, and reflective thinking among future primary school teachers. The scientific conclusions and practical recommendations contribute to improving the teacher training system.

Keywords: vitagen educational technology, perceptual ability, future teacher,

KIRISH


Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy talablardan biri – shaxsga yo'naltirilgan, innovatsion va kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagog kadrlarni tayyorlashdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi nafaqat fan bilimlari, balki o'quvchini chuqur idrok etish, uning psixologik holatini sezish, individual xususiyatlarini anglash bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida perseptiv qobiliyatlarni rivojlantirish pedagogik ta'limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Perseptiv qobiliyat pedagogning o'quvchi shaxsini idrok etish, uning xulq-atvori, hissiy holati va o'quv faoliyatidagi o'ziga xos jihatlarini anglay olishida namoyon bo'ladi. Mazkur qobiliyatning yetarli darajada shakllanmaganligi ta'lim jarayonida pedagogik xatolarga, noto'g'ri baholash va muloqotdagi uzilishlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali bu qobiliyatni rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

So'nggi yillarda pedagogika nazariyasida vitagen ta'lim texnologiyasi shaxsning hayotiy tajribasiga asoslangan, faol idrok va refleksiyaning rag'batlantiruvchi yondashuv sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu texnologiya bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanishida muhim imkoniyatlar yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarning perseptiv qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan shaxs rivoji, kasbiy kompetensiya va pedagogik mahorat kontekstida o'rganilgan. Psixologiya fanida perseptiv jarayonlar shaxsning atrof-muhitni idrok etishi, boshqa insonlarning ichki holatini anglash va talqin qilish bilan bog'liq murakkab psixik mexanizm sifatida talqin etiladi.[3;360-b] Xususan, L.S. Vygotskiy idrok va tafakkur rivojini ijtimoiy tajriba bilan uzviy bog'lab, shaxs rivojida subyektiv tajribaning muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, shaxsning bilish faoliyati tashqi ta'sirlar emas, balki ichki qayta ishlangan tajriba asosida shakllanadi.[1;320-b]



1-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining perseptiv qobiliyatini rivojlantirish


A.N.Leontev va S.L.Rubinshteynlar faoliyat nazariyasi doirasida idrokni faol subyektiv jarayon sifatida asoslab, shaxsning kasbiy faoliyatida perseptiv sezgirlik yetakchi omillardan biri ekanligini ko'rsatib bergan[2;304-b]. Pedagogika fanida esa perseptiv qobiliyat o'qituvchining o'quvchi shaxsini to'g'ri tushunishi, uning individual-psixologik xususiyatlarini anglay olishi bilan bog'liq kasbiy sifat sifatida izohlanadi. Vitagen ta'lim texnologiyasi masalasida V.I.Andreev vitagen tajribani shaxs tomonidan ongli ravishda o'zlashtirilgan, amaliy faoliyatda sinalgan va kasbiy rivojlanishga xizmat qiluvchi bilimlar majmui sifatida talqin qiladi[4;278-b]. Ushbu yondashuvda ta'lim jarayoni talabaning shaxsiy hayotiy tajribasini faollashtirish, uni tahlil qilish va pedagogik vaziyatlarga transfer qilish asosida tashkil etiladi. N.F.Talizina vitagen yondashuv reflektiv fikrlashni rivojlantirish orqali o'quv faoliyatining samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi[5; 288-b].

O'zbekistonlik olimlar tadqiqotlarida ham zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash masalalari yoritilgan. M.Ochilov va B.Xodjayevlarning ilmiy ishlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining pedagogik samaradorligi asoslab berilgan[6;192-b.;7;216-b]. Biroq vitagen ta'lim texnologiyasi asosida aynan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining perseptiv qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Mazkur tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv, suhbat, so'rovnoma, diagnostik metodlar hamda tajriba-sinov ishlari qo'llanildi[10;164-b]. Tadqiqot metodologiyasi vitagen yondashuv asosida talabalarning shaxsiy pedagogik tajribasini aniqlash, tahlil qilish va rivojlantirishga yo'naltirildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari vitagen ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining perseptiv qobiliyatlarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Tajriba jarayonida talabalar bilan real pedagogik vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar, reflektiv savollar, shaxsiy tajribani tahlil qilishga yo'naltirilgan muammoli vazifalar amalga oshirildi.



2-rasm: Bo'lajak o'qituvchilarning perseptiv qobiliyatlarini rivojlantirishda vitagen ta'lim texnologiyasining samaradorligi.

Tajriba guruhidagi talabalarda o'quvchi shaxsini idrok etish, uning emotsional holatini sezish, pedagogik vaziyatlarni chuqur tahlil qilish va baholash ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi. Xususan, talabalar o'quvchilarning xulq-atvoridagi yashirin psixologik holatlarni anglash, individual yondashuvni tanlash va pedagogik qarorlarni asosli qabul qilishda yuqori faollik namoyon etdilar.

Nazorat guruhi bilan solishtirganda, tajriba guruhida perseptiv sezgirlik, pedagogik kuzatuvchanlik va refleksiv fikrlash ko'rsatkichlari yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bu holat vitagen ta'lim texnologiyasining shaxsiy tajribani faollashtirish orqali idrok jarayonlarini chuqurlashtirish imkoniyatiga egaligini tasdiqlaydi. Olingan natijalar avvalgi tadqiqotlarda qayd etilgan xulosalar bilan uyg'un bo'lib, vitagen yondashuvning bo'lajak o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligidagi muhim o'rnini yana bir bor isbotlaydi. Vitagen texnologiya nafaqat perseptiv qobiliyatlarni rivojlantiradi, balki talabalarda kasbiy refleksiya, pedagogik mas'uliyat va o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Bu esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy yetukligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Vitagen ta'lim texnologiyasining bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishiga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Xususan, mazkur texnologiya asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarda faqatgina pedagogik idrokni rivojlantirish bilan cheklanmay, balki ularning kasbiy ongida o'quvchi shaxsiga nisbatan empatik munosabatni shakllantirishga ham xizmat qilgani kuzatildi. Talabalar pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish jarayonida o'quvchining tashqi xulq-atvori ortida yotgan ichki sabablarni izlashga, hissiy holatlarni baholashda yuzaki xulosalardan qochishga intildilar. Vitagen yondashuv asosida olib borilgan mashg'ulotlar talabalarining shaxsiy pedagogik tajribasini tizimli ravishda tahlil qilishga yo'naltirilganligi sababli, ularning kasbiy refleksiyasi sezilarli darajada faollashdi. Refleksiv jarayonlar orqali talabalar o'z pedagogik harakatlari va qarorlarini baholash, ulardagi kamchiliklarni anglash hamda kelgusida bunday vaziyatlarda muqobil yechimlarni ishlab chiqish ko'nikmalarini egalladilar. Bu holat bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mustaqilligi va mas'uliyatini oshirishga xizmat qilgani bilan ahamiyatlidir. Tajriba jarayonida vitagen texnologiya asosida tashkil etilgan topshiriqlar talabalarda pedagogik kuzatuvchanlikni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ular o'quvchilar bilan muloqot jarayonida noverbal belgilar, emotsional reaksiyalar va xulq-atvordagi mayda o'zgarishlarga e'tibor qaratish zarurligini anglay boshladilar. Bu esa pedagogik faoliyatda muhim bo'lgan individual yondashuvni tanlash, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish hamda ta'lim-tarbiya jarayonida psixologik qulay muhit yaratish imkonini oshirdi.

Vitagen ta'lim texnologiyasi talabalarining nazariy bilimlarini real pedagogik holatlar bilan integratsiyalashga yordam berdi. Talabalar o'z hayotiy tajribasi va pedagogik kuzatuvlari asosida bilimlarni qayta talqin qilish, ularni amaliy faoliyatga moslashtirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada, pedagogik bilimlar abstrakt tushunchalar darajasida qolib ketmay, kasbiy faoliyatda qo'llaniladigan amaliy kompetensiyalarga aylana boshladi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari vitagen ta'lim texnologiyasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining perseptiv qobiliyatlarini rivojlantirishda kompleks pedagogik ta'sir mexanizmi sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Ushbu texnologiya orqali talabalarda pedagogik sezgirlik, refleksiv fikrlash va o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan yondashuvning shakllanishi ta'minlandi. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida samarali pedagogik qarorlar qabul qilishiga mustahkam zamin yaratadi.

XULOSA

O'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari vitagen ta'lim texnologiyasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining perseptiv qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot jarayonida vitagen yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim mashg'ulotlari talabalarining o'quvchini idrok etish, uning individual-psixologik xususiyatlarini anglash hamda pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatgani aniqlandi.

Vitagen ta'lim texnologiyasi shaxsning hayotiy tajribasini o'quv jarayoniga integratsiyalash orqali refleksiv fikrlashni faollashtirishi, pedagogik sezgirlik va kasbiy mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Tajriba-sinov ishlari natijalari ushbu texnologiya asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bo'lajak o'qituvchilarda perseptiv sezgirlik, pedagogik kuzatuvchanlik hamda o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmalarining rivojlanishini ta'minlashini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida vitagen ta'lim texnologiyasidan tizimli foydalanish zarurligini asoslaydi. Mazkur xulosalar pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish hamda boshlang'ich ta'lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari vitagen ta'lim texnologiyasini qo'llash bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni samarali amalga oshirish imkonini berishini ko'rsatdi. Mazkur texnologiya talabalarining pedagogik faoliyatga nisbatan ongli munosabatini shakllantirish, o'z kasbiy tajribasini anglash va uni pedagogik vazifalarni hal etishda maqsadga muvofiq qo'llashga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Natijada, bo'lajak o'qituvchilar ta'lim jarayonida o'quvchini passiv obyekt sifatida emas, balki faol va individual rivojlanishga ega shaxs sifatida qabul qilishga intildilar.

Vitagen yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar pedagogik vaziyatlarni modellashtirish va tahlil qilish orqali talabalarining analitik fikrlashini rivojlantirdi. Ushbu jarayonda talabalar o'z qarorlarining pedagogik oqibatlarini oldindan baholash, turli pedagogik strategiyalarni solishtirish va eng maqbul variantni tanlash ko'nikmalarini egalladilar. Bu holat ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida refleksiv va mas'uliyatli pedagogik pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari vitagen ta'lim texnologiyasining boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida integrativ pedagogik vosita sifatida qo'llanishi mumkinligini ko'rsatdi. Ushbu texnologiya pedagogika, psixologiya va metodika fanlari mazmunini o'zaro uyg'unlashtirish orqali talabalarining kasbiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi. Natijada, bo'lajak o'qituvchilarda nazariy bilimlar va amaliy faoliyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik mustahkamlanadi. Vitagen ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy shakllanishida muhim pedagogik shart-sharoitlarni yaratadi. Ushbu yondashuvdan tizimli va maqsadli foydalanish ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini yuksaltirish hamda boshlang'ich ta'lim tizimining zamonaviy talablar asosida rivojlanishiga xizmat qilishi bilan ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. L.S.Vygotskiy Tafakkur va nutq psixologiyasi – Moskva: Pedagogika, 2005. – 320 b.
2. A.N.Leontev Faoliyat. Ong. Shaxs – Moskva: Politizdat, 2004. – 304 b.
3. S.L.Rubinshteyn Umumiy psixologiya asoslari – Moskva: Piter, 2010. – 360 b.
4. V.I.Andreev Kreativ shaxsni rivojlantirish pedagogikasi – Qozon: Innovatsion ta'lim markazi nashriyoti, 2012. – 278 b.

Tursunboyeva Kamola Ilxomjon qizi

5. N.F.Talizina Pedagogik psixologiya – Moskva: Akademiya, 2011. – 288 b.
6. M.Ochilov Pedagogik texnologiyalar – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 192 b.
7. B.Xodjayev Zamonaviy ta'lim texnologiyalari – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 216 b.
8. Sh.Sharipov Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi – Toshkent: Fan, 2020. – 240 b.
9. B.R.Qodirov Pedagogik mahorat asoslari – Toshkent: Ma'naviyat, 2016. – 180 b.
10. R.Ismoilov Boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlar – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019. – 164 b.